

# TONG Yulduzi

№40 (66373)  
2002 yil  
30 sentabr,  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

## MUALLIM

Ilk bora sho'xlik-la maktabga kelsam,  
Sen meni mehr-la bag'ringga olding.  
Ilk bora qo'limga qalam tutqazib,  
«Ona», «Vatan» so'zin dilimga solding.

Ustoz, sизsiz umrim so'nmas quyoshi,  
Men-chi, ilm bo'stoni tolividurman.  
Siz mening hayotim porloq ziyosi,  
Men esa bir ilm sohibidurman.

Har soniya o'zingiz yo'limda paydo,  
Bolam, qiynalma deb yo'l ochmoqdasiz.  
Doimo yo'llaring yorug' bo'lsin deb,  
Mehr sochmoqdasiz, nur sochmoqdasiz.

Muallim, gar komil inson bo'lolsam,  
Sizning bu qarzingiz uzolamanmi?  
Eng ezgu niyatim, aziz ustozim,  
Sizga bag'ishlab doston tuzolamanmi?

Nodirbek RAHIMOV,  
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi  
Ahmab Donish nomli mакtabning  
9 - sinf o'quvchisi.

Maktabimizda yaxshi bir an'ana  
bor. Har yili ustozlar bayrami oldidan  
o'z kasbiga sodiq faxriy  
o'qituvchilarni yig'ib,

## A.N.A.N.A.C.AR

ko'ngillarini shod etish maqsadida  
bayram dasturxoni yoziladi. Bu yil  
ham shunday bo'ldi. Bayram  
dasturimiz 40 yildan ziyod vaqt  
mobaynida o'quvchilarga ta'lim berib  
kelayotgan ustozimiz Xusniya opa  
Akromovaga bag'ishlandi. Xusniya

1 Oktabr - O'qituvchilar va murabbiylar kuni



*Muomalasi ipak, talabi tosh,  
aziz USTOZlar, ayyomingiz muborak!*

opamizni maktabimiz rahbari  
ham, ustozlarimiz ham,  
qo'yingchi, hammamiz juda  
yaxshi ko'ramiz.

-Men Xusniya opani 1992  
yildan buyon taniyman,-deydi  
Maktabimiz direktori Kozim  
aka Ag'zamov.-Juda qattiqqa 'l,  
talabchan ustozlar. Mehnat ta'tiliga

foydalanib, qiziqarli o'tishga harakat  
qiladilar. Kitob o'qigan bolalarni  
yaxshi ko'radilar. Komil insonlar bo'lib  
yetishgan ko'plab shogirdlari bilan  
faxrlanib yuradilar.

-Xusniya opa bizning ham  
ustozimiz. Ona tili va adabiyot fanidan  
saboq berardilar. Hatto devoriy  
gazetalarni

## DAVOM ETADI

chiqib ham tinib-  
tinchimaydilar.

-Men esa ular bilan 30 yildan beri  
ishlab kelaman,-deya suhabatga  
qo'shildilar Ma'suda opa Badalova.-  
Menga opaning dars o'tish jarayoni  
juda yoqadi. Faqat darsliklar bilan  
kifoyalanib qolmay, qo'shimcha  
adabiyotlar, gazeta va jurnallardan

ham ularning  
ko'magisiz chiqara olmasdik. Shunday  
ajoyib ustozning shogirdi ekanligimdan  
faxrlanaman...

Fursatdan foydalanib, men ham  
barcha ustozlarimni ayyomlari bilan  
samimiyl qutlayman.

Mahmudjon AZIMOV,  
Shayxontohur tumanidagi  
169 - mакtabning  
6 - «D» sinf o'quvchisi.


*Mehribon, mehri bor muallim*

Ustoz otangdek ulug', deyishadi. Ota-onamiz kabi ustozni ham qanchalik ulug'lasak ozdek tuyulaveradi. Chunki u bizga bilim beribgina qolmasdan, tarbiya beradi, mehr-muhabbat beradi. Uning nasihatlari bir umrga bizga hamroh bo'ladi. Shuning uchun ham biz «ustoz so'zi - mangu mash'ala», «hayot yo'lining sarboni», deymiz-da.

O'qituvchilar odobli va aqli o'quvchilarni xush ko'radilar.

muvaffaqiyatli bitirganlaridan so'ng, pedagog bo'lishni niyat qildilar. Orzulari ijobat bo'lib, ilk pedagogik faoliyatlarini 8 - maktabda boshladilar.

Hozirgi kunda esa 86 - maktabda o'quvchilarga bilim berib kelmoqdalar. Maktab jamoasi bilimdon va talabchan ustozga ishonib, ilm olishga intiluvchan o'g'il-qizlardan iborat gimnaziya sinfini topshirdi. Opamiz o'quvchilarining bilimdon, zukko, dono bo'lishlari uchun tinmay mehnat qilmoqdalar.

**HAYOT YO'LNING SARBONI**

Oramizda uchraydigan ayrim o'dobsi z o'quvchilarni ham o'z mehri bilan yaxshilar qatoriga qo'shishga harakat qiladilar. Ustozning har bir o'quvchi bilan tezda til topisha olishi katta mahoratdir.

Bugun qo'limga qalam olib, shunday xayollarga berilar ekanman, albatta birinchi ustozim ko'z oldimda gavdalananadi.

Ilk marotaba maktabga qadam qo'yganimda, qo'limdan yetaklab sinfonaga olib borgan ustozimni mehr bilan tilga olgim keladi. O'shanda birinchi partaning «egasi» edim. Ustozim - Inobat opa Qayumova o'rgatgan barcha bilimlarni olishga harakat qillardim. Shirin so'zları, mehrli ko'zları hamisha biz o'quvchilarni sehrlab qo'yardi.

Inobat opa 1974 yili 37- maktabni



Ustozning besh nafar farzandlari bor. Farzandlari ham ota-onalari xohlagandek insonlar bo'lib yetishishyapti.

Ertaga, «O'qituvchilar va murabbiylar kuni» ni nishonlaymiz. Shu munosabat bilan birinchi

navbatda Inobat opamizni va albatta barcha mehribon ustozlarimizni bayramlari bilan tabriklaymiz. Ularga sog'lik va omonlik tilaymiz.

Biz o'quvchilar davrasida sira charchamang va zerikmang, degimiz keladi. Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz ustozlar!

*Nilufar*

*SHODJONOVA,  
Toshkent shahar,*

*Yunusobod tumanidagi  
21 - maktabning  
10- «A» sinf o'quvchisi.*

**QUTLUG' BO'L SIN**

Ko'z nuri-yu qalb qo'ri-la,  
Bilim berar ustozlar.  
Go'yo ota-onamizdek,  
Bizni sevar ustozlar.  
Bugun barcha ta'zimdadir,  
Sizga hurmat e'zozlab.  
Madhingizni kuyga qo'shib,  
Taralsin yangroq sozlar.  
Bayramingiz qutlug' bo'lsin,  
Jondan aziz ustozlar!

*Muxlisa*

*ZIYOVUDDINOVA,  
Poytaxtimizdagি  
274 - maktabning  
10 - «B» sinf o'quvchisi.*

## MAKTAB FORMASI SHARTMIKAN?

- Ilgari maktabda o'qib yurgan davrimda yuqori sinflar uchun maktab formasi shartmikan, degan xayolga borardim-da, o'zim xohlagandek kiyinib yurishga intilardim. Bu esa ustozlarimga yoqmasdi, albatta,- deydi *Toshkent pedagogika kolleji talabasi Dilnoza BOTIROVA*. - Bugun esa o'zim ustoz bo'lish arafasidaman. Toshkent pedagogika kolleji talabasiman.

Yaqinda biz - kollej talabalari bir maktabga dars kuzatgani bordik. Buni qarangki, yuqori sinf o'quvchilarini o'qituvchilardan ajrata olmadik. Sababi, o'quvchilar bashang kiyin, zeb-ziynatlarga belangan.

Chiroli kiyinish bo'yicha go'yo birlari bilan musobaqa o'ynayotgandek edilar. Ular bilim olgani emas, ust- boshlarini ko'zko'z qilgani kelishgan, nazarimda.

Bunday o'quvchilar oldida o'qituvchi oddiy kiyin, kamtaringina.

Biz bo'lajak o'qituvchilarga bu manzara sira yoqmadi. O'quvchi maktabga o'quvchidek kelishi lozimligini tushundik. Maktab formasi yuqori sinf o'quvchilariga ham albatta kerak ekanligini his qildik.

Aziz o'quvchilar, siz bunga nima deysiz?

**Bo'lajak so'z pedagoglar so'raydi**

## ULARDEK USTOZ BO'LSAM

- Bu yil men Respublika Nafis san'at litseyini yakunlab, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetiga o'qishga kirdim. Bundan juda xursandman, - deydi *Feruza NIYOZOVA*. - O'qishga kirishimda avvalo ustozlarimning mehnati katta bo'ldi.

Ular bizdan bor bilimlarini a y a m a d i l a r . S a v o l l a r i m i z g a erinmasdan, to'liq javob berardilar. Biz bilan ovora bo'lib kechgacha maktabda qolib ketardilar.

Ayniqsa, ona tili o'qituvchimiz Zahro opa, adabiyot domlamiz Qosimjon aka kabi ustozlarimiz biz bilan jiddiy shug'ullandilar. Ular doimo biror yangi gap aytish payida bo'lardilar. O'z navbatida esa ustozlarimiz bizga o'rgatganlarini qattiq turib

talab qillardilar. Fan haftaliklari, oyliklari tez-tez bo'lib turardi. Har bir tadbiriga o'zları bosh bo'lardilar.

Mana shunday ustozlardan tarbiya organimdan faxrlanaman. Kelajakda xuddi ulardek ustoz bo'lishga harakat qilaman.

Ayni kunlarda men pedagogika va psixologiya fakultetining talabasiman. Pedagogika o'qituvchimiz Shoira Saidovna bizga pedagogikaning maqsad va vazifalarini tushuntirishdan charchamaydilar.

Ertaga Respublikamizda «O'qituvchilar va murabbiylar kuni» keng nishonlanadi. Fursatdan foydalananib, barcha ustozlarimizni bayramlari bilan muborakbod etaman.

**A. ABDULLAJONOV  
yozib oldi.**



President asarlarini o'rganamiz

## MILLIY ISTIQLOL G'OVASI: ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLAR

(Davomi.

*Boshi o'tgan sonlarda.)*

— millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqod manbai bo'lishi;

— har qanday ilg'or g'oyani o'ziga singdirishi va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olishi;

— zamon va davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan manfaat, maqsad-muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olishi.

Milliy istiqlol mafkurasi ana shu talablarga javob bergan taqdirdagina quyidagi asosiy vazifalarni bajara oladi:

— mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish;

— hur fikrli, mutelik va jur'atsizlikdan xoli bo'lgan, o'z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan insonni tarbiyalash;

— odamlarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning irodasini baquvvat qilish, iymon-e'tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan ma'naviy muhit yaratish;

— vatandoshlarimiz tafakkurida o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarimizni a'srab-avaylash, vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish;

— xalqimizga xos bo'lgan iymon-e'tiqod, insof-diyonat, sahovat, halollik, mehr-oqibat, sharmu hayo kabi fazilatlarni yanada yuksaltirish.

— mamlakatimizning ko'p millatli xalqi ongi va qalbida «O'zbekiston — yagona Vatan» degan tushunchani shakllantirish va rivojlantirish.

Bu vazifalarning bajarilishi fuqarolarimizni hozirgi shiddatkor hayot talablariga javob bera oladigan shaxslarga, yangi jamiyat qurilishining faol ishtirokchilariga aylantirishga xizmat qiladi.

(Davomi bor).

## SIZNI BOSHIMIZDA KO'TARAMIZ!

Ustoz! Bu nom dunyodagi eng muqaddas nomdir. Bizlar uni har qancha e'zozlasak ham oz. O'sha qalbi daryo insonlar emasmi, qo'limizga qalam tutqazgan, «Ona» so'zini ilk bora yozdirgan, erkligimizni ko'targan, qaysarligu sho'xliklarimizga chidagan. Ustozlarimiz bizni o'z farzandlaridek yaxshi ko'radilar, quvonchimizga sherik bo'ladilar, bilmaganlarimizni o'rgatadilar. Umid qilamanki, men va sinfdoshlarim ustozimiz faxrlanadigan farzandlar bo'lib kamol topamiz, ularni boshimizda ko'taramiz, men bunga ishonaman.

**Ustoz bizga berdingiz bilim,  
O'rgatdingiz barcha fanlarni.  
Siz tufayli to'ladir aqlim,  
Sodiqdurman sizga har doim.**

*Saida AZLAROVA,  
Shayxontohur tumanidagi  
316 - maktabning  
4- «G» sinf o'quvchisi.*

## UMID NIHOLLARI

Kuni kecha maktabimizda «Umid nihollari» sport musobaqalari o'tkazildi. Ushbu bayramda maktabimiz o'quvchilari tomonidan turli qiziqarli ko'rinishlar namoyish etildi. Musobaqalarda nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar jamoasi ham faol ishtirok etishdi. Bunday sport bayramlarining o'tkazilishi Respublikamiz maktablarida an'anaga aylanib bormoqda. Yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni, necha asrlardan buyon xalqimizning milliy qahramonlari bo'lmish Alpomishu Barchinoylar kabi har tomonlama sog'lom va barkamol etib tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ushbu sport bayrami maktabimiz hayotida unutilmas kun bo'lib qoladi.

*D.MIRSOATOVA,  
Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
187 - maktabning  
6- «D» sinf o'quvchisi.*



## USTOZLARGA AYTAR SO'ZIM BOR

Biz o'quvchilar o'qituvchilar va murabbiylar bayrami arafasida barcha ustozlarimizga yana bir bor iliq so'zlar aytgimiz keladi. Men ham bugun gazetamiz sahifalari orqali barcha ustozlarimga, jumladan sinf rahbarimiz, kimyo fani o'qituvchisi Mardon aka Ochilovga aytar so'zlarim bor.

Avvalo Mardon akamiz haqida. Ustozimiz 1966 yili Oybek nomli 17- maktabni a'lo baholar bilan yakunlaganlar. O'qishni muvaffaqiyatli tugatib, o'zlarini ta'lim-tarbiya olgan muktabga ishga keldilar.

Mana shu kungacha biz o'quvchilarga kimyodan saboq berib kelyaptilar.

Talabchan ustoz har bir

o'quvchi bilan tezda til topisha oladilar. Barcha yaxshi ishlarimizga o'zlarini bosh bo'ladilar.

- Hamkasbim Mardon Ochilov o'z fanining bilimdoni. Doimo mas'uliyatni his qiladi, - deydi muktab direktori Yashin aka Toshev. - U kamtarin, to'g'riso'z, shu bilan birga yosh o'qituvchilarga ustoz hamdir. Mana shunday ustozlar safimizda kengayaversin.

Ha, fidoiy o'qituvchilar bor bo'lsin.

Mehribon ustoz Mardon aka! Hamisha sog'- salomat bo'ling. Bayramingiz qutlug' bo'lsin.

*Zulkumor DAVLATOVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Kitob tumanidagi 17- muktab o'quvchisi.*

Kitob do'konlarini aylanib, to'g'risi, ko'nglim to'lmadi. Chunki bizlar uchun lotin alifbosidagi kitoblar juda oz edi. Keyingi paytda Respublikada bolalar adabiyotiga bo'lgan munosabat qoniqarli emasligi qayd etilmoqda. Mana bu yil lotin alifbosida o'qiyotgan bolalar 9-sinfga qadam qo'yishdi.

Lekin ularda kitobga bo'lgan qiziqishning kamligi kerakli adabiyotlar yo'qligidan deb o'ylayman. Umuman yo'q, demoqchi emasman. Gazetalar, jurnallar, kitoblar mavjud, lekin juda oz. Shu o'rinda O'zbekiston Xalq shoiri Omon Matjonning aytgan gaplari yodimga tushadi: «Nevaram kabinetimga kirdi, kitob javonlariga qaradi. Robinzon Kruzo ham, Myunxauzen ham, Jyul Vern ham barchasi kiril alifbosida. Minglab-minglab kitoblarga qarab, angrayib

turibdi. Meni vahima bosadi. Qachon endi bu kitoblarni unga lotin alifbosiga o'girib beramiz? Davlat miqyosida bu juda qattiq yo'naltirilgan dastur asosida olib borilishi kerak bo'lgan ishdir», deb aytadi. O'zbek bolalar adabiyotida

**BORU LEKIN OZ-DA...**

Quddus

Muhammadiy, Xudoyerdi To'xtaboyev, Zafar Diyor kabi namoyondalar bor. Ammo ularning asarlari ham kamdan-kam lotin alifbosiga o'girilgan.

Bu muammolarni mutasaddi tashkilotlarda ishlayotgan akajon opajonlarimizdan tezroq hal qilishlarini so'rab qolamiz.

Munisaxon

*AHMADXO'JAYEVA,  
Toshkent shahar, A.Ikromov  
tumanidagi 116 - muktabning  
8- «B» sinf o'quvchisi.*



## SIZGA TA'ZIM

Umrining qariyb yigirma yildan ortig‘ini shogirdlari qurshovida o‘tkazgan ajoyib ustozlardan biri Bashorat opa Shokirova Amir Temur nomli 112 - mактабда boshlang‘ich sinflar ilmiy bo‘lim mudiri bo‘lib ishlab kelmoqdalar. Bashorat opa o‘zlarini sevimli kasblariga bag‘ishlagan ajoyib ustozdirlar.

Savodini chiqarib, bilimli va zukko qilib tarbiyalagan shogirdlarining sanog‘i yo‘q. Xalqimizda, ustozi otangday ulug‘, degan naql bor. Darhaqiqat, umrimizni charog‘on, yo‘limizni nurafshon etguvchi ham ustozlarimizdir. Ushbu faraxbaxsh kunlarda barcha ustozlarimni, xususan, Bashorat opa Shokirovani kasb bayramlari bilan chin qalbimdan qutlayman.

Aziz ustozlarim, ushbu kunda dunyodagi jamiiyki ezgu-tilaklar sizlarga atalgan. Hayotingiz buloq suvidek musaffo bo‘lsin. Doimo shogirdlar qurshovida yurish nasib etsin!

*Bugun Sizga mehr to‘la qalbim bilan,  
Pok niyatim izhor etdim, ustozlarim.*

*Takror aytgan nasihatu o‘gitingiz,  
Ayni damda anglab yetdim ustozlarim.  
Yo‘limizni yorug‘ qilgan Siz o‘zingiz,  
Hayotingiz bolga to‘lsin, ustozlarim.  
Dil to‘rida ardoqlaymiz har so‘zingiz,  
Ayyomingiz qutlug‘ bo‘lsin, Ustozlarim!*

*Poytaxtdagi 112 - mактабning  
10- «V» sinf o‘quvchilarini nomidan,  
Dilafro‘z XUDOYBERDIYEVA.*

## SHOGIRD BIR NIHOL EKAN

Shogird - ustozi bag‘rida nihol kabi ekan. O‘z mehridan buyukligi ufurib turuvchi ustozlarimizning aytgan har bir so‘zi duru yoqutga qiyos. Ular hayot yo‘limizning sarboni, ilm bog‘imizning bog‘bonidirlar. O‘qituvchi - ma’no dengizining duri, muomalasi - ipak, talabi esa toshdir. Murabbiylarning mehnati - suv muzni boshiga ko‘tarib asta-sekin eritishiga o‘xshaydi. Uning samarasini kelajak ko‘rsatadi. Ayni chog‘da men o‘zim unib-o‘sgan, ta’lim-tarbiya ko‘rgan muqaddas go‘shamdagи qadrondan ustozi-murabbiylarim haqida so‘z yuritishni istardim.

Ustozlarning bergen ta’lim- tarbiyasi insoniyatga quyosh nuridan ham ziyoda yorug‘lik baxsh etadi. Men

uchun zarur bo‘lgan oftob taftini Xolida Ibragimova, Flyura Bogdanova, Munira Habibova, Oybahir Yusupova kabi mehribon va qadrli ustozlarim bergenlar. Men bir shogird sifatida O‘zbekistondagi barcha o‘qituvchi, ustozi-murabbiylarni ayyomlari bilan muborakbod etaman.

Sizlarga insonning xazinasi, chehranining guli, baxtiyorlikning belgisi, ko‘ngil ozig‘i, hayot chirog‘i bo‘lmish salomatlik, kulgu va tabassum doimo yor bo‘lsin!

Hayotingiz boldan totli, umringiz chinordek uzun bo‘lsin!

*Dildora MA’MIROVA,  
Sirdaryo viloyati, Oq oltin tuman  
«Kamolot» YOIH kengashi  
qoshidagi «XXI asr yoshlari»  
klubi a’zosi.*

## «O‘ZBEKİSTON QAHRAMONI»

Bu ulug‘ nomga munosib bo‘lish barchamiz uchun qadrli bo‘lgan otaxonimiz, sevimli ustozimiz so‘zi o‘tkir, qalami keskir, irodasi mustahkam, hamisha chehralaridan nur yog‘ilib turuvchi Ozod aka Sharofiddinovga nasib etganligini eshitib, xursandligimdan ko‘zlarimda yosh qalqib ketdi.

Men esimni taniganimdan beri Ozod aka Sharofiddinovni yaxshi bilaman. U kishiga hurmatim baland. Hayajon-la hayolan domla bilan suhbatlashaman. Domlajon, deyman men, xalqimiz, davlatimiz sizning mehnatlarining munosib baholab, qahramonligingizni tan olibdi.

O‘z umrini xalqiga, adabiyotga, shogirdlariga bag‘ishlash, turmushning past-balando so‘qmoqlaridan dadil qadam tashlab halol hayot kechirish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi-ku!

O‘yaymanki, siz ortga, kechirgan hayot yo‘lingizga nazar tashlasangiz, uning sahifalarida yaratgan gulbog‘laringiz, ya’ni farzandlaringiz, ochilgan gullaringiz, ya’ni shogirdlaringiz, yozgan asarlarining namoyon bo‘ladi.

Domlajon, sizga qahramonlik muborak! Sizdek qahramon inson otam Sanjar Sodiqovning ustozlari bo‘lganliklaridan faxlanaman. Chunki sizdagi chinakam olimlik, haqqoniylig, mehnatsevarlik, kurashchanlik, irodalilik, vatanparvarlik, insoniylik fazilatlari barcha shogirdlaringizda mujassamdir.

Sizning halollikka, jasoratga to‘liq hayot yo‘lingiz biz yoshlari uchun bitmas-tuganmas ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

*Zulfizar SODIQOVA,  
Toshkent shahar, S.Rahimov tumanidagi  
243 - mактабning 9- «A» sinf o‘quvchisi.*

M e n i n g  
birinchi ustozim,  
siz suratda ko‘rib  
turgan Ro‘ziqul  
Uzoqov yaqinda  
60 yoshga  
to‘ldilar. U  
kishini muborak  
yoshlari bilan



## QURSLAÝMAN

chin dildan tabriklayman. Biz kabi shogirdlarni tarbiyalashda hormaytolmay xizmat qilsinlar va yana ko‘plab o‘quvchilarga birinchi ustozi bo‘lib yursinlar. Ularga ishlarida omad, sog‘lik tilayman.

*Shahnoza QODIROVA,  
Buxoro viloyati, G‘ijduvon  
tumanidagi 48 - mактабning  
3- «A» sinf o‘quvchisi.*

*Mustaqil yurt bolalari iqtidorlidir*

chiroyli qilib turmaklab  
qo'yadi. Sportning tennis turi  
bilan muntazam shug'ullanadi. Xonaki  
gullarni o'stirish, ko'paytirish jonu dili.

o'tkaziladigan ko'rik-  
tanlovlarida muvaffaqiyatli  
ishtirok etib kelyapti.  
She'rxonlik, Navoiyxonliklarda  
qatnashyapti. She'riy

muvaffaqiyatli qatnashib  
keladi. Kimyo fani-aniq fan  
Shundanmi, bolalar  
mukammal bilim olishga  
biroz qiynalishadi. Maktablarda bu fan

**IQTIDOR - BU MASULIYAT DEMAK**

Gulruhning bo'sh vaqtini  
deyarli bo'lmaydi, hisob.

mashqlari viloyat va  
Respublika nashrlarida chop  
etilyapti. «Balli, qizlar!»,  
«Istiqlol malikalari», «O'n  
sakkizga kirmagan kim  
bor?» kabi ko'rik-  
tanlovlarida qayinlarining ishonchi  
asos bo'lgan bo'lsa  
ajabmas.

-Iqtidorli bolalarni  
ko'rganda ich-ichimdan  
quvonib ketaman,-deydi  
Jizzax shahar «Sog'lom  
avlod uchun»

jamg'armasi  
r a i s i  
Xolbuvi  
Mansurova.  
Gulruh ham  
ana shunday  
qizlardan biri.  
U

jamg'armamiz  
to'moni dan  
o'tkazilgan  
tanlovlarida

**O'NAMGA**

Farzandlaring uyingda,  
Qayg'urasan kuyunib.  
Ko'zlariningdan, kelyapman,  
Hamon tashvishlar tuyib.

Onam, umring o'tmoqda,  
Tashvish ichda, sirt besas.  
Sening uchun bir yorqin,  
Umid bo'lib qolsam bas.

Shunday bo'lsa-da,  
qozonga solgan  
ovqati pishgunga  
qadar, qo'liga  
igna, ip olib,  
z a r d o ' z l i k  
hunarini sevib  
o'rganadi.

S h u n i n g  
uchun ham uni  
«iqtidori qiz»  
deb atashadi.

Iqtidor, ishonch,  
mas'uliyat... Gulruh bir-biri  
bilan uzviy bog'liq bo'lgan  
bu so'zlar haqida juda ko'p  
o'ylaydi. O'ylagani sari,  
zimmasidagi mas'uliyat  
hissini yanada teranroq,  
chuqurroq anglagandek  
bo'ladi. Axir ustozlari,  
do'stlari, qolaversa, ota-  
onasi yuksak ishonch  
bildirishdi unga. Shu  
ishonchdan ruhlanib,  
maktab, tuman, shahar,  
viloyat miqyosida

**O'ZBEGIM  
QIZLARI**

Oy yuzlidir yuzlari,  
Boldan shirin so'zları,  
Chiroylidir o'zları,  
O'zbegimning qizlari.

Ular bor, Barchinlar bor,  
To'marislari yodi yor,  
Alpomishlar bo'lar yor,  
O'zbegimning qizlari.

*Gulruh MUXTOROVA.*

o'qituvchilarining  
kamligi, yetishmasligining  
sababi ham shundadir  
balki. Gulruh esa ana shu  
murakkab fanga mehr  
qo'yan. Yosh bo'lsa-da,  
bu boradagi izlanishlari  
ijobiy samara beryapti.  
«Kimyo fanidan sinfdan  
tashqari o'yinlar»,  
«Anorganik kimyodan  
test kitobi», «Mo'jisiz  
mo'jizalar kechasi» kabi  
to'plamlari, «Jon ichra  
jonimsan Vatan!» nomli  
she'riy to'plamlarining  
chop etilishi ham, 2001-  
2002 yillarda kimyo  
fanidan viloyat miqyosida  
o'tkazilgan fan  
olimpiadalarida qatnashib,  
faxrli 1-o'rinni egallagani  
ham Gulruhning tinimsiz  
izlanishlari samarasi, deb  
bilaman. Qani endi hamma  
qizlarimiz ham unga  
o'xshashsa...

Hozirgi kunda JDPI  
qoshidagi «Iqtidorli  
bolalar» litseyining 11-  
biologiya guruhida tahsil  
olayotgan Gulruhning  
orzulari bir olam: xuddi  
dadasidek yetuk inson,  
mohir shifokor bo'lish.  
Qalbi zavqu shavqqa  
to'lib-toshgan, maqsad  
sari intiluvchan bu  
qizning orzulari ijobot  
bo'lishiga biz ham  
tilakdoshmiz.

*Feruza JALILOVA.*



*Italiyadan xat*


Salom o'zbekistonlik tengdoshlarim! Men belorussiyalik do'stingiz Kristina Veryovkinaman. Gazetangiz sahifalarida bir necha bor maqolalarim chop etilgandi, yodingizga tushdimi? Shundan keyin ko'plab o'zbekistonlik o'g'il-qizlardan do'stlik maktublari oldim. Ayniqsa, toshkentlik Ruslan, Sevara, buxorolik Sardorbek, chirchiqlik Sobir ismli

tengdoshlarimning maktublarini o'qib, yurtingizga borib kelgandek bo'ldim. Chunki o'z shaharlari haqida faxr va iftihor bilan batafsil hikoya qilishibdi. Ulardagi vatandan g'ururlanish tuyg'usi meni juda ta'sirlantirib yubordi...

Bu maktubni sizlarga Italiyadan yo'llayapman. Taqdir taqozosi bilan biz Chernobil bolalari ko'pincha uydan yiroqda bo'lamiz. Bir yilda 2 marta



## VATANIMNI SOG'INDIM



3 oy mobaynida chet ellarda dam olib, havo almashtirib, lozim bo'lsa, davolanib qaytamiz. Men asosan Italiyaning Paderno shahrida bo'laman. Har gal borganimda sinyorim Julian hamda sinyoram Mariya Gratsiyalar iliq qarshi olishadi. Ular menga o'z ota-onamdek mehr berishadi. Bu yil 10 bahorni qarshi oldim. Tug'ilgan kunimni Italiyada nishonladik. Julian va Mariya Gratsiyalar to'kin dasturxon bezab, mazali shirinliklar pishirishdi. Qo'ni-qo'shnilarining bolalari meni qutlagani chiqishdi. Kattakon tortning ustidagi 10 dona shamni puflab o'chirganimda, katta-yu kichik chapak chalib, olqishlashdi. Qisqasi, Italiyadagi har bir kunim zavqli, maroqli o'tadi. Bu yerning ob-havosi, tabiatи ham juda yoqadi. Lekin baribir o'zuyimni, ota-onamni sog'inib q o l a m a n . O'zbekistonlik do'stlarimdagи o'z yurti bilan faxrlanish, iftihor qilish tuyg'ulari menga ham ko'chdi. Hammadan ham ko'proq o'z VATANimni sog'inib ketdim.

# QOVOQVOYNING

(2 pardali, 7 ko'rinishli ertak. Yangi varianti.)

**(Oxiri. Boshi o'tgan sonlarda.)**

**Qovunjon:**

Sirayam kelgani yo'q,

Bo'laversin ko'ngling to'q.

**Tarvuz:**

Maza suvdan bir ozroq,

Ichib ol do'stim Qovoq —

Yig'asan es-hushingni,

Gapirmaysan tushingni.

(Tarvuz uzatgan suvni ichadi, Qovoqvoy anche o'ziga keladi, atrofga olazarak qaraydi.)

**Qovoqvoy:**

Assalom, Dehqon boba,

Sog'aydingizmi?

**Dehqon boba:**

Obbo,

Rahmat, Qovoqvoy, rahmat!

O'zi nima harakat?

**Qovoqvoy:**

Ochig'ini aytsam agar...

Men uchratdim

Sehrgar,

Paxta terimida ham

Beradi sizga yordam.

**Qovunjon:**

O'zi tinchlikmi,

Qovoq,

So'zing hali ham chatoq.

**Qovoqvoy:**

Karrajadvalni talay Qoyil qilib o'rgatdi.

O'rganishda eng qulay

To'g'ri yo'lni ko'rsatdi.

Yolg'on gapga yugurma,

Besh joyda to'rt — yigirma.

Do'star aytgan gapga ko'n,

Beshta ikki bo'lar o'n! Badantarbiya qilib, Kuchga to'ldim ishqilib. Qalay, qoyil qildimmi? Hammasini bildimmi? (Hamma unga hayron bo'lib turganida Sehrgar kiyimidagi chol kirib keladi)

**Sehrgar:**

Yetib keldi Sehrgar, Yo'qoldi xavfuxatar.

**Qovoqvoy:**

(Sevinib, hovliqib.)

Salom, Sehrgar

bobo,

Ishlar juda ham a'lo.

Endi kulib

o'ynayman,

Yaxshilikni

o'ylayman.

Sehrgar boba, Sizga —

Deyman chin dildan rahmat!

Men tushdim to'g'ri izga,

Bir iltimos bor faqat:

Egasiz ko'p hunarga,

Mumkin bo'lsa ularga —

Sehringizni ko'rsating,

Hech kim deyolmaydi g'ing.

**Sehrgar:**

To'g'rimas bunaqa so'z Tuzalmabsan-da hanuz.

Tarvuz, qani suvdan ber,

Peshonadan chiqsin ter.

(G'alati qilib suvdan ichadi u. Soqolini artib qo'yadi.)

Sog'misan do'stim

Qovun,

Bu yil bo'libsan uzun.

**Qovunjon:**

Qalaysan, do'stim Qovoq,

Zaryadka

qilib bir-bir,

Oldingilardan hozir

Bo'lgandirsan kuchliroq?

**Sehrgar:**

Gaping to'g'ri

Qovunjon, Bo'ldi qo'rmas va chaqqon. Hafsala qilsa chindan Ko'p ish chiqadi undan. Hasharotni bog'ladi, Do'stlar ko'nglin chog'ladi... (Qovoqvoy maqtanibroq turadi. Oysholg'om, Lavlagijonlar kirib kelishadi.)

**Oysholg'om:**

Sizlarga der assalom!

Lavlagijon,

Oysholg'om.

**Lavlagijon:**

Chaqirgan ekansizlar,

Mashinada g'iz etib

Huzuringizga yetib

Kelib turibmiz bizlar,

Kimki so'rasa yordam,

Bizlar tayyormiz har dam.

**Dehqon boba:**

Juda yaxshi kelibsiz,

O'z vaqtida kelibsiz.

**Oysholg'om:**

Kim u kasal, bilaylik?

Avval ukol qilaylik.

**Tarvuz:**

Yo'q, hammamiz soppa-

sog'.

**Dehqon boba:**

Anov Qovoqvoy biroq...

**Lavlagijon:**

Qovoqvoy chin bahodir,

Bizlar guvohmiz axir.

Botir ekan chinakam.

**Qovoqvoy:**

Sehrgar berdi yordam.

**Sehrgar:**

Qovoqvoy hozir durust,

Mardlik qildi ustma-

ust.

Ochig'in aytsam senga.

**Qovunjon:**

sinfdan-sinfga

Endi o'tadi ildam.

**Qovoqvoy:**

Sehrgar berdi yordam.

(Hansirab G'ujumoy kirib keladi).

**G'ujumoy:**

Yashamagur Ko'sak qurt

Paykalda ekan beburd.

Chiqib qoldi yo'limdan,

O'ziyam xo'p savadim.

Olib qochdi savatim,

Chiqmaganda qo'limdan...

(Dehqon boboni ko'rib qolib, yoniga borib ko'rishadi.)

Dehqon bobo sog'misiz,

Rosa tashvish tortdik biz.

**Dehqon boba:**

Ha, yaxshiman, G'ujumoy,

Tinchmi o'zi hamma joy?

**Tarvuz:**

(Shoshib.)

Qolgan hasharotlarni,

U yaramas zotlarni

Kim boradi ushlashga,

Bobomlarni xushlashga!

**Hamma:**

Biz hammamiz tayyormiz.

**Qovoqvoy:**

(Sehrgar yoniga borib.)

Mana bizlar ham bormiz.

**Dehqon boba:**

Boringlar, barakalla,

O'tmasin qulay palla.

(Barcha chiqib keta

boshlaydi. Sahna bo'sh

qoladi. Ko'sak qurti va

Chigirtka bolasi qochib

kirishadi.)

**Chigirtka bolasi:**

Zo'rg'a qutildim omon,

Kelishmoqda biz tomon.

(Tarvuz, Qovun,

Handalak, G'ujumoylar

bostirib kirib ularni ushlab

olishadi.)

**G'ujumoy:**

Dehqon bobo, qaydasiz

Endi rahmat aytarsiz.

**Dehqon boba:**

(Kelib.)

Bu yerdaman G'ujumoy,

Hasharotdan barcha joy

Tozalandimi endi?

**Tarvuz:**



U

# SARGUZASHTI

Po'lat MO'MIN

Ko'ngillar bir oz tindi.

**Qovunjon:**

Eng zo'ri qolgan yana.

(Shu paytda Qovoqvoy)

O'rgimchakkanani o'z

to'riga o'rab yetaklab keladi.)

**Qovoqvoy:**

(G'ururlanib.)

Mana O'rgimchakkana!

**Hamma:**

Yashavor, Qovoq, yasha.

**G'ujumoy:**

Maqtovlarga yarasha

Botir bo'libsan, qoyil.

Kurashibsan astoydil.

(Arqon bilan bog'langan

Chigirtka, Ko'sak qurtini

olib kirishadi. bolalari

ularning yoniga boradi.

Asir tushgan

O'rgimchakkana ham shu

yerdasi.)

**Dehqon bobo:**

Chanoqvoy ko'rinxmaydi...

**Qovoqvoy:**

Yurgandir o'ynab, daydib.

**Sehrgar:**

(Kelib.)

Siz so'rigan Chanoqvoy

Go'yo gijinglagan toy.

Qaydaligini bilaman

Hozir aytib kelaman.

(Chiqadi. Boshqalar

Qovoqvoyni o'rab uni

maqtay boshlashadi. U

keriladi. Uyoqdan-buyoqqa

yuradi.)

**Tarvuz:**

Botirlik qilib rosa

Changagandir tomog'ing,

Mana suvdan ich, mazza,

Bosiladi chanqog'ing.

(Qovoqvoy suvdan

ichadi.)

**G'ujumoy:**

Kelmoqda Qovoqxolam.

**Qovoqxola:**

(Shoshib-pishib kirib

keladi.)

Muncha quvnoqsan,

bolam,

Qovoqqinam yolg'izim.

Ham o'g'limsan, ham

qizim.

**Qovoqvoy:**

Doim deysiz shunaqa.

**Qovoqxola:**

Ketib qolding qayoqqa?

Sendan o'zim o'rgilay,

Ayta qol, nima qilay?

**Qovoqvoy:**

Doim qildingiz erka,

Yuzim qarardi yerga.

**Qovun:**

Undan olmang xavotir

O'g'lingiz chin bahodir.

**Qovoqxola:**

Botirimdan o'rgilay,

O'zim gиргиттон bo'lay.

(Erkalab o'padi.)

**Tarvuz:**

Qoyil,

Qovoqvoy, qoyil.

**Qovoqvoy:**

Qidirdim-da

oy va yil,

So'ng topdim

Sehrgarni,

Hayron

qildim senlarni.

(Sehrgar

oldingi kiyimlarini

qo'liga olib kirib keladi.)

**Chanoqvoy:**

Ishonmayman bu so'zga,

Ochig'in aytay sizga,

Oddiy do'stingiz sizning

Mana menman

Chanoqvoy.

**Hamma:**

Chanoqvoy ekan-ku,

voy...

(Qalpoq va yasama

soqolini yechib, o'zining

chanoqdan bo'lgan

qalpog'ini kiyib oladi.

Qovoqvoyning rangi o'chib

hayron bo'lib, qoladi.

Tarvuz unga darrov suv

beradi.)

**Tarvuz:**

Beshta ikki bo'lar o'n,

Do'stlar aytgan gapga

ko'n!

**Chanoqvoy:**

Ishonma deb Sehrgarga,

Aytgan edim necha marta.

Endi Qovoq, o'zingdan

ko'r,

Har narsadan do'stlik zo'r.

**Qovoqvoy:**

(O'ziga kelib.)

Karrajadvalni menga

O'rgatganing-chun senga

— Chin dildan deyman,  
rahmat.**Dehqon bobo:**

Ha, Qovoqvoy azamat.

**G'ujumoy:**Ey, durust-ku bu so'zing,  
Ochilib qopti ko'zing.**Qovoqroy:**Do'stlar shum hasharotni  
Zararli yomon zotni —  
Bog'lagan menmas, biroq— Bog'lashgan anov,  
Chanoq.**Dehqon bobo:**Qovoqvoy, senga  
farmon,Sen ularni qil gumdon.  
(Qovoqvoy ularni  
sudrab olib chiqadi-  
da, yana qaytib  
keladi.)**Qovoqvoy:**Topshiriqni  
bajardim,

Boshqasi bordir balkim.

**Dehqon bobo:**

(Sevinib.)

Endi tamom hasharot.

**Tarvuz:**

Kimga tegar mukofot?

(Hamma bir-biriga qarab  
qolishadi. Qovunjon  
yugurib chiqib ketadi-da,  
Dehqon boboga bir nima  
keltirib beradi. Dehqon  
bobo olib qarasa, u qovoq  
shaklida).**Dehqon bobo:**Qovoqvoyna, albatta,  
Rahmat deymiz, eng katta.(Lentani Qovoqvoyning  
bo'yniga osib qo'yadi.)

Chin botirsan, Qovoqvoy.

**Qovoqvoy:**Unga loyiq Chanoqvoy.  
(O'z bo'ynidan olibChanoqvoyning bo'yniga  
ilmoqchi bo'ladi.)**Dehqon bobo:**

Unga ham bordir yana.


(Cho'ntagidan chanoq  
nusxa medalni olib, uning

bo'yniga osib qo'yadi.)

Boshlang, qo'shiq,


tantana.  
(Hamma chapak  
chaladi. Chanoqvoy  
sahnating  
oldinrog'iga —  
tomoshabinlarga  
yaqinroq borishadi.  
Bir-biri bilan  
quchoqlashib ko'rishadi.  
Ashula boshlanadi).**Hamma:**Beshta ikki bo'lar o'n,  
bo'lar o'n,Ishim bo'lsin desang  
o'ng, desang o'ng,

Laqillama bekorga,

bekorga,  
Do'stlar aytgan  
gapga ko'n, gapga  
ko'n.(Dehqon bobo,  
Chanoqvoy, Tarvuz  
bilan Qovunjon,  
Oysholg'om, Lavlagi  
va boshqalar ham  
sahnadan o'tishadi.  
G'ujumoy o'ynaydi.  
Haligi ashulaning  
davomi eshitiladi).  
Bog'larda bor, gul-  
g'uncha, gul-g'uncha,  
Qovoqvoy ham bir  
muncha, bir muncha,— Yordam bilan tuzaldi,  
tuzaldi,Xayr, do'stlar,  
ko'rguncha,  
ko'rguncha.**Qovoqvoy va****Chanoqvoy:**(Pardaning oldiga  
chiqishadi.)Xayr, do'stlar,  
ko'rguncha,  
ko'rguncha!Xayr, do'stlar,  
ko'rguncha,  
ko'rguncha,  
ko'rguncha.**Parda.**  
Tamom.

# SAMARQAND - DUNYONING SAYQALI

Biz Toshkent viloyati, Qibray tumaning so‘lim go‘shalaridan biri - Do‘rmon jamoa xo‘jaligida yashaymiz. Bobojonim Salim boba asli samarqadlik ekanlar. Bobom ota-bobolari yurti - hamisha ko‘xna va navqiron Samarqand shahri haqida juda ko‘p gapirib bergenlar. Ularning hikoyalarini tinglab, bu ajoyib shaharni bir bor ko‘rishni orzulab yurardim. Bu yilgi yozgi ta‘tilda o‘z orzuimga erishdim. Oyijonim va buvijonim bizlarni bobomning yurtlariga sayohatga olib borishdi. U yerdagi bobolarimiz qurgan ko‘xna obidalarni tomosha qilib, Registon maydoni, Ulug‘bek



maqbarasidagi naqshinkor bezaklar, tillo suvi bilan ishlangan moviy gumbazlarni ko‘rib xayratlandim. Shu mo‘jizalarni yaratgan otabobolarim bilan faxrlandim. Oyxon buvijonim menga juda ko‘p afsonalar, rivoyatlar aytib beradilar. Men Samarqandda ana shu afsonalarni hayotda ko‘rgandek bo‘ldim. Olgan taassurotlarimni dugonalarimga so‘zlab berdim. U yerda esdalik uchun suratga ham tushdik. «Samarqand - dunyoning sayqali» ekanligiga amin bo‘ldim.

*Nodira EGAMBERDIYEVA,  
Toshkent viloyatidagi  
14 - maktabning  
6-sinf o‘quvchisi.*

Men S.Rahimov bilimlarini ayamaydilar. tumanida joylashgan Obid Shundanmi, maktabimiz Sodiqov nomli 249 - o‘quvchilari ko‘plab ko‘rik-maktabda o‘qiyman. Maktabimiz direktori Xava opa

Xamedova bizga juda mehribonlar.

O‘quvchilarimiz ham bizdan shirin so‘zlarini, bor

Shundanmi, maktabimiz o‘quvchilari ko‘plab ko‘rik-tanlovlar, bellashuvlarda Maktabimiz direktori qatnashib, faxrlri o‘inlarni

qo‘lga kiritishmoqda. Yaqinda ingliz tili maktabimiz «Kamalak» bolalar tashkilotiga a‘zo

o‘qituvchimiz Feruza opa Akromova boshchiligidagi bir necha o‘quvchilar AQShga borib, o‘z malakalarini oshirib keldilar. Hozirda

bo‘ldi. Har bir sinfdan


liderlar saylandi. Ularning vazifasi yetti yo‘nalish bo‘yicha ish olib borish. Kuzning dastlabki

oylarida biologiya o‘quvchilarimiz

boshchiligidagi ko‘kalamzorlashtirish ishlarini avj oldirib yubordik. Har bir sinfga maydon biriktirilgan bo‘lib, o‘quvchilar u yerni gulzorga aylantiradilar, ozoda saqlaydilar. 8- «G», 7- «J», 7- «V» hamda 9- «V», «B» sinflarining gulzorlari «Eng go‘zal gulzor» deb topildi.

Xullas, maktabda o‘tadigan har bir kunimiz ana shunday mazmunli o‘tadi.

*Dilrabo  
YUNUSOVA.*



*Yangilikka talpinayotgan ko'ngillar*

*Yaqinda Xalq ta'limi vazirligiga qarashli Respublika o'quvchilar texnik ijodiyot markazida «Kelajak yaratuvchilari» an'anaviy Respublika ijodkor o'quvchilar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.*

*Respublika «Kamolot» yoshlar ijtimoiy xarakati, Respublika Davlat Patent idorasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan ko'rgazmada Qoraqalpog'iston Respublikasi Toshkent shahri va barcha viloyatlardan ixtirochi o'g'il-qizlar ishtirok etdilar. Eng iqtidorli o'quvchilar texnik ijodkorliklarini Respublika miqyosida yana bir bor sinovdan o'tkazdilar.*

*O'z.EKSPO markazining irrigatsiya pavilonida o'tkazilgan ko'rgazma o'n yo'nalishi bo'lib, har bir viloyatdan o'n nafardan ixtirochi bolalar o'z ishlarini namoyish qildilar.*

Ko'rgazmani tashkil qilishdan maqsad, - deydi biz bilan suhbatda Respublika texnik ijodiyot markazidagi tashkiliy, ommaviy va

qadrlash yili» ga bag'ishlangan pannosi uchun berildi.

To'rtinchi yo'nalish- «Badiiy bezash» ishlari bo'yicha Samarqand

«Gazobeton» maketi uchun.

Sakkinch, «Sanoat, qurilish moslamalari» yo'nalishi bo'yicha Andijon viloyati Oltinko'l tumanidagi 2- maktabning 9- sinf o'quvchisi Abdulaziz Pirimqulovning «Olmos» modeli uchun berildi.

To'qqizinchi «Maishiy texnika» yo'nalishi bo'yicha esa Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 48-maktabning 9- sinf o'quvchisi Panji Eshqobilovning «Test» moslamasi uchun topishirildi.

Va nihoyat o'ninchi yo'nalish «Xarbiy texnika» bo'yicha esa Samarqand viloyatidagi 50-maktabning 5- sinf o'quvchisi Valeriy Kruglovning «Minalashtirilgan

## IXTIROCHI BOLALAR KO'RGAZMASIDA

uslubiy ishlari bo'yicha direktor o'rinosi Feruza opa Rasulova, - avvalo iqtidorli bolalarni izlab topish, ularagi texnik ijodkorlikni yuzaga chiqarish, Vatanga munosib farzand qilib tarbiyalash, hayotda o'z o'rinalarini topishlariga yordam berishdir.

Bundan tashqari, bolalardagi ixtirochilik mahoratlarini yanada mustahkamlab, Respublika Patent idoralari orqali ishlari ujjatlashtirishga qaratilgandir.

Birinchi yo'nalish - «Boshlang'ich texnik modellashtirish va texnik o'yinchoqlar» bo'yicha birinchi o'rin Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi ixtirochi o'quvchilar jamoasiga berildi.

Ikkinchi yo'nalish - «Agrosanoat va qishloq xo'jaligi mashinalari» bo'yicha Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi 2- maktabning 11- sinf o'quvchisi Omad Pirimqulovning «Nihol» modeli uchun topshirildi.

Uchinchi yo'nalish - «Milliy xunarmandchilik va amaliy san'at ishlari» bo'yicha esa Samarqand viloyati, Samarqand shahridagi 55-maktabning 8- sinf o'quvchisi Gulnoza Xo'jayevaning «Qariyalarni

viloyatidagi 42- maktabning, 9- sinf o'quvchisi Sanjar Xolmatovning «Samarqand yeri sahovati» kompozitsiyasi uchun topshirildi.

Beshinchi yo'nalish- «Tabiatni muhofaza qilish moslamalari» Rohat Abduxoliqovning «Suv tozalagich uskunasi» uchun berildi. Rohat

maydonlarni tozalovchi zaryadli moslama»si uchun berildi.

Bundan tashqari, jamoa bo'yicha ham o'rinalar ajratildi. Jumladan, samarqandlik o'quvchilar birinchi, surxondaryolik ixtirochi bolalar ikkinchi va Toshkent shahri o'quvchilari uchunchi o'rinni egallashdi

Shuningdek, har bir qatnashuvchi o'quvchilarga guvohnoma topshirildi.

Biz barcha ixtirochi, iqtidorli bolalarni chin qalbdan tabriklaymiz. Ularning kelgusi ishlari uchun omadlar tilab qolamiz.

*Mana shunday ixtirochilik qobiliyati bo'lgan bolalar, avvalo maktabdagagi va texnik markazlardagi to'garaklarda faol ishtirok etishlari zarurligini aytishni lozim topdik.*

*Ixtirochilik oddiydan murakkablikka qarab boraveradi. Iqtidorli o'quvchilar izlanuvchan, yangilikka intiluvchan bo'ladilar. Shuning uchun ham o'z ustida tinimsiz ishlashadi. Ko'p o'qib, o'rganishadi. Bu yo'lda barchangizga sabr-toqat hamroh bo'lsin, degimiz keladi.*

F.ODILOVA



Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 36-maktabning 7- sinfida o'qiydi.

Oltinchi, «Transport» yo'nalish bo'yicha esa Farg'onan viloyatidagi 13-maktabning 6- sinf o'quvchisi Iskandar Mamatxonovning «Yuk tashiydigan mashina»siga berildi.

Yettinchi, «Ximiya» yo'nalishi bo'yicha Samarqand viloyati, Samarqand shahridagi 14-maktabning 9- sinf o'quvchisi Umid G'ulomovning

Bu voqea bahor kunlarining birida ro'y berdi. Do'stlarimiz bilan

asfalt qilinmagan, loyga botib yotardi. Yomg'ir esa sira tinay demasdi...

ham meni holimga tushinglar, keyin ko'ramiz, derdi. Yarim yo'lga yetib

qolishga ko'ndirib, uyg'a qaytdik. Ukalarim ham bizni ko'rib rosa kulishdi.

Biz o'yinni yana davom ettirdik. Ko'chamiz ham ajoyib-da, bizni ne holga solmadi.

Yozda changga,

yomg'irli kunlarda

esa loyga

a y l a n t i r i b

yuboradi. Yomg'irli

kechadagi bu voqeani

eslasak, hanuzgacha

do'stlarim bilan mazza

qilib kulishamiz.

*Madina*

*ESHMURODOVA,*

*Oqtosh shahridagi*

*59 - maktab*

*o'quvchisi.*


## YOMG'IRLI KECHA

darsdan so'ng biznikida «Savol-javob», «Zinamazinga», «Zakovat» o'yinlarini o'tkazishga qaror qildik. Biz o'yinga shu darajada berilib ketibmizki, kech kirib qolganini ham payqamay qolibmiz. Sabogul va Dilshoda jala quyayotgani bois, kuzatib qo'yinglar, deb iltimos qilishdi. Jala tinishini kutinglar, desak unashmadi. Ko'chamiz

Shunday qilib yo'lga tushdik. Loy ko'chada ketyapmiz, ust-boshimiz shalabboga aylangan. Bir vaqt Sabogul loyga yiqilib tushdi. Uni bir amallab turg'azib oldik, lekin uning ahvolini ko'rib, kulgudan o'zimizni to'xtata olmasdik. U ham kulib, ham bizdan jahli chiqar va o'zinglar

qolganimizda jala do'lga aylandi. Oyog'imiz loyga botib, qiyinalib, zo'rg'a qadam bosardik. Shunda singlim ham yiqilib tushdi...

Xullas, hammamiz loyga belangancha do'stlarimizni biznikida



## KUNLARDAN BIR KUN

savatlarni to'ntarib qo'yishar yoki balandroq, salqinroq joyga osib qo'yisharkan. Xullas, ertasi kuni kechki payt mehmonlar kelishiga

oldiga chopishibdi va bo'lgan voqeani gapirib berishibdi. Katta buvim oldiniga «Voy

turishibdi. Mabodo, mehmonlar bu go'sht tustovuqniki emasligini bilib qolishsa nima bo'ladi?», deya



## TUSTOVUQ ORNICA TOVUQ

tayyorgarlik ishlari tugagach, tasodifan eslariga ov go'shti tushib qolib, borib qarashsa, go'sht yo'q emish. Buvim bilan opoqimning boshlaridan hushlari uchib ketibdi. Chunki mushuklar olib ketib, allaqachon o'z ziyofatlarini o'tkazib bo'lishgan ekan. Halizamon ataylab ov go'shtidan tatib ko'rish uchun mehmonlar kelishadi. Ahvol esa bunaqa. Qani bu haqda erkaklarga aytib ko'rishsinchi, naq baloga qolishadi. Ikkala ovsin nima qilishlarini bilmay, qaynonalarining

sho'rim», deya boshlarini ushlab, uquvsiz kelinlarini koyibdilar-da, so'ng o'ylanib turib, darhol «falonchini chaqiringlar», deya qo'shni bolani chaqirishni buyuribdilar. Qo'shni bola kelgach, kelinlariga tovuqxonadagi tovuqlardan tustovuq kattaligidagilarini kerakli miqdordagisini tutib, so'ydirishni, tozalab, tuzlab qo'yishni buyuribdilar. Kelinlar hash-pash deguncha qaynonalarining aytganlarini qilishibdi. Kechki payt mehmonlar kelishibdi. Buvim va ovsinlari «ov go'shti»dan shirin taom tayyorlab, mehmonlarga tortishibdi-da, o'zları sergak bo'lib kutib

xavotirda ekanlar. Biroq mehmonxona tomondan «Tustovuqning go'shti o'zimizning tovuqlarning go'shtiga qaraganda mazaliroq ekan, yashavoringlar», degan maqtovlarni eshitishgach, uchchalasi rosa kulishibdi. Lekin o'z ovlari gashtidan mast bo'lgan aka-ukalarga hech nima deyishmabdi. Garchi yillar o'tsa-da, bu sir qaynona-kelinlar o'rtasida sirligicha qolibdi...

Bu voqeani buvim yaqinda kulib-kulib menga aytib berdilar.

*Timur RO'ZIMATOV.*

*Bugunning bolasi*

Maktab dasturiga yangi fanlarning kiritilishi hozirgi zamonda talabiga javob beradigan dolzarb masala edi. U o'z yechimini topdi. 5-6 sinflar dasturiga «Vatan tuyg'usi», 7-9 sinflar dasturiga «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari», 11-sinflar dasturiga «Milliy istiqlol g'oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillari» kabi fanlar kiritilgani ayni muddao bo'ldi. Bu fanlarni o'rganish orqali o'quvchilarda Vatanni sevish, ardoqlash, unga bo'lgan muhabbatni kuchaytirish, milliy urf-o'datlarimizni,

**DIYORBEK G'OLIB BO'LDI**

an'analarimizni qadrlash, terrorizm va giyohvandlikka qarshi kurash, ulardan nafratlanish hissi yanada ortmoqda.

Maktabimizda «Diniy aqidaparastlik», «Ogohlikka da'vat», «Giyohvandlikka qarshi kurash» mavzularida davra suhbatlari, bahsmunozaralar, topqirlar bellashuvi, ko'rik-tanlovlar tez-tez o'tkazilib

turadi. Jumladan, tarix o'qituvchisi Alisher Safarov 8-11 sinflar o'rtasida «Giyohvandlik - XXI asr vabosi» mavzusida ko'rik-tanlov o'tkazdi. Bu tadbir o'quvchilarda Vatan xoinlariga, padarkush farzandlariga bo'lgan nafrat hissini uyg'otdi. Yaqinda maktabimizda «Terrorizm va giyohvandlikka qarshi kurash» mavzusida

savol-javoblar o'tkazildi. 5-«V» sinf o'quvchisi Diyorbek Mirabdullayev o'zining bilimdonligi, topqirligi, hozirjavobligi, «Vatan tuyg'usi» fani bo'yicha chuqur bilimga ega ekanligini ko'rsatib, savollarga aniq va puxta javob berdi va teatr xodimlari tomonidan rag'batlantirdi.

Diyorbek fanlarni o'zlashtiribgina qolmay, sport sohasida ham yuqori ko'rsatkichlarga erishib kelyapti. U qo'l jangi bo'yicha 1-o'rinn sovrindori.

Bu uchrashuv o'quvchilarda yanada hushyor, ogoh bo'lish hissini kuchaytirdi va juda katta taassurot qoldirdi. Bunday uchrashuvlar maktabimizda tez-tez bo'lib turishini istaymiz. Uchrashuvlarni uyuştirgan teatr xodimlariga o'z minnatdorchilikimizni bildiramiz.

**Mukarram MIRXUSANOVA,  
Toshkent shahar,  
Mirobod tumanidagi  
147- maktab direktori.**



«Turon» teatri xodimlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Teatr direktori Ravshan Yoriyev o'quvchilarga terrorizm va giyohvandlikning zararli oqibatlari haqida bir necha misollar keltirib, o'quvchilarni ogohlik, hushyorlikka chaqirdi. «Onaizor», «Otajon» kabi sahna ko'rinishi namoyish etildi. Teatr nihoyasida o'quvchilarning mazkur mavzu bo'yicha bilimlarini sinash maqsadida

Bir kishi shoshib ketayotganida tugmasi uzilib, yerga tushib qolganini sezmay qolibdi. Tugma esa:

- Eh, yaxshi bo'ldi, endi men erkinman. Hali yechinib, hali kiyinib meni bezovta qilar edilar, qutuldim. Xohlasam g'ildirakday g'ildirayman. Xohlasam qo'shiq aytib, raqsga tushaman, - debdi va:

*Men tugmaman, tugmaman,  
Hammadan men kattaman.*

*Mazza qilib o'ynayman,  
Yallo qilib yuraman,-*

deb bor ovozda kuylabdi. Shu payt qattiq shamol turibdi. Daraxt barglarini to'kibdi. Hazonlar orasida qolgan tugmavoyning qo'shig'ini hech kim eshitmabdi. Tugmavoy xarchand intilsa ham hazonlar orasidan chiqa olimabdi. U juda zerikibdi.

- Qani edi odamlar meni ko'rib

*Tengdoshlarining ijodi*

qolsalar, qishning sovuq kunlarida ularga yordam berardim, badanlarini issiq tutardim, -deb o'yabdi.

**MAQTANCHOQ TUGMA**

Qish bo'yli hazonlar tagida qor, yomg'irlarda qolgan tugmaning rangi oqarib, chirib ketibdi.

Bahor kelibdi. Odamlar ariqlarni, ko'chalarni tozalashibdi. Shunda ulardan biri tugmavoyni topib olibdi.

- Voy bechora-yey, namda qolib yorilib ketibdi-ya, -deb achinibdi. Shunda tugmavoy tilga kirib, odamlardek gapiribdi:

- Men qishda dam olaman, yozda esa ishlayman, -debbi. Uning gapidan hayron bo'lgan odamlar:

- Iya, qiziq-ku, nega avji odamlarga kerakli bo'lgan paytingda hazonlar orasida yotib dam olasan. Yozning issiq kunida sening nima keraging bor, -deyishibdi. Shunda tugmavoy uyalib, nima deyishini bilmay qolibdi. Odamlar tugmani yana yerga tashlab, o'z ishlarini davom ettiribdilar.

Tugmavoy yerda yotaverib-yotaverib zerikibdi va:

- Qani edi biror odam meni olsa. Endi hecham maqtanmay, insonlarga xizmat qillardim, debbi afsuslanib.

Hikmat:


Maqtanchoq bo'lmang - hijolat chekasiz.

**Malika RAHMONBEKOVA.**



# Bizning to'garak

Aziz bolajonlar, «Istiqlol umidlari» to'garagimizning bu galgi mavzusi nimaga bag'ishlandi, deb o'ylaysiz? «Albatta «O'qituvchi va murabbiylar kuni»ga-da, deysizmi? Juda to'g'ri topdingiz. Chunki ushbu ayyomda har bir o'g'il-qizning dilida ham, tilida ham ustozlariga aytar gaplari bisyor bo'ladi. Dunyodagi jamiyki ezgu niyatlarini ularga bag'ishlaydilar. Jumladan, to'garagimiz a'zolarining ham. Qo'sh sahifamizda minnatdor shogirdlarning dil izhorlarini, she'riy mashqlarini o'qisiz.



## ONAMNING HAM BAYRAMI

Men Yunusobod tumanida joylashgan maktablardan birida tahsil olaman. Menga bilim berayotgan ustozlarimni juda qadrlayman. Manzura opa Karakulova bizga xuddi ikkinchi onamizdek bo'lib qolganlar. Hatto onamizga aytolmagan sirlarimizni Manzura opamizga aytib, ulardan maslahatlar olamiz. Bizga saboq b e r a d i g a n ustozlarimiz Gulnora opa Ergasheva, Dilfuza opa Yunusova, Fotima opa Qosimova, Maryam opa Sobirova, Hikoyat opa Romanova, Hosiyat opa Gapirova... Eh-he, bu ro'yxatni yana ancha davom ettirish mumkin. Men ana shunday ajoyib ustozlardan bilim olayotganimdan faxrlanaman. Shu ustozlarimga bosh-qosh bo'layotgan maktabimiz rahbari Gulchehra Akromova ham biz bilan tez-



tez suhbatlashib turadilar. Ularning hammalarini sevimli gazetam «Tong yulduzi» orqali bayramlari bilan samimiy qutlayman.

Ushbu ayyomni 258 - maktabda bosh oshpaz vazifasida ishlab kelayotgan onajonimning ham bayramlari deb bilaman. Chunki ular o'quvchilarni shirin taomlari bilan siylabgina qolmay, qiziquvchan qizlarga pazandalik sirlarini ham o'rgatadilar.

Ovqatlanish uchun kelgan kichkintoylarni «qo'lingizni yuvdingizmi?» deya tergab turadilar. Kecha oyijonimning tavallud ayyomlarini nishonladik. Onajonimni qo'shaloq bayram bilan tabriklayman. Doimo sog'lom, go'zal bo'lib yursinlar.

*Malika ABDUVOHIDOVA,  
Toshkent shahar, Yunusobod  
tumanidagi 12 - maktabning  
9-sinfo 'quvchisi.*

## U QUYOSHDEK PORLAYDI

Qo'limizdan yetaklab,  
Maktab sari chorlaydi.  
Ziyo berib bizlarga,  
U quyoshdek porlaydi.  
Ilk bor qalam tutqazib,  
Bilim bergen ustozim.  
Onamizdek mehribon,  
Sizlarga ko'p-ko'p ta'zim.

*Zamira AHROROVA,  
Poytaxtdagi 272 - maktabning  
5 - «A» sinf o'quvchisi.*

## KOMIL INSON BO'LAMAN

Bilim bilan bizlarga,  
Berdingiz mehringizni.  
A'lo o'qigin deya,  
Berdingiz zehningizni.  
Bag'ringizda ulg'ayib,  
Kuch-quvvatga to'laman.  
Ulg'aygach men ham sizdek,  
Komil inson bo'laman.

*Shahzoda RIZAYEVA,  
«Orom» nomli bog'cha-  
maktabning 4 - «G» sinf  
o'quvchisi.*

## RAHMAT OLIB KELAYLIK

Ustozlarimiz bizga bilim beribgina qolmay, tarbiya ham berishadi, odobli, ahloqli bo'lishimiz kerakligini uqtirishadi. Odobnama fani o'qituvchisi Gulmira opa To'xtayeva ana shunday har bir so'zleri hikmatga boy ustozlarimizdan biri. Ular bizga ko'cha-kuyda o'zimizni qanday tutishimiz, kattalarni hurmat qilishimiz lozimligini o'rgatadilar. Ulardan olgan saboqlarim bois ko'chalarda tengdosh dugonalarimni ham kuzatadigan bo'lib qolganman.

Kuni kecha bir ko'ngilsiz voqeanning guvohi bo'ldim.

Maktabim oldidan o'tib ketayotgandim. O'sha yerda joylashgan gazeta do'koniga yonidagi bir qizning harakatlari meni hayron qoldirdi. Sotuvchi uzatgan bir gazetani qo'liga olib varaqladi. O'ziga kerakli narsani topa olmadi shekilli, sotuvchining oldiga otib yubordi. Sotuvchi tanbeh bergen edi, unga gap qaytarib, yo'lida davom etdi...

Men hayron bo'lib qoldim. Nahotki bu qizga uyida yoki maktabida o'qituvchilari



odob-ahloqdan dars o'tishmagan, kattalarga qanday muomala qilish kerakligini o'rgatishmagan bo'lsa? Bu voqeadan har bir qiz o'ziga kerakli xulosa chiqarib olib, ota-onasi va ustozlari sha'niga faqatgina rahmat keltiradigan bo'lishlarini istardim.

*Umida  
AHMADXO'JAYEVA,  
Mirzo Ulug'bek  
tumanidagi  
18 - maktabning  
7- «D» sinf o'quvchisi.*

**USTOZIM**

O'qishdan, yozishdan berdingiz saboq,  
O'rgatdingiz nedir gunohu savob.  
Siz bo'lib go'yoki chamandagi gul,  
Bizlarni qildingiz sayroqi bulbul.  
Mehri daryo, qalbi quyosh ustozim,  
Shogirdlaringiz sizga qiladi ta'zim.

*Dildora EGAMBERDIYEVA,  
Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumanidagi  
312 - maktabning 5 - «A» sinf o'quvchisi.*

**SHE'RIM SIZGA ARMUG'ON**

*Jahonda muallim bo'lmasa agar,  
Hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar.*

Ha, ustozlarimizga bag'ishlab bitilgan ushbu satrlarda bir olam ma'no mujassam. Darhaqiqat, ustozlar bo'lmasa, ularning mehri ila ulg'a yamasak, hayotning ma'nosini ham anglamagan bo'lardik. Ne-ne buyuk zotlar ham qaysi bir ustozning shogirdi bo'lganlar. Ustozlik kasbidek ulug' va mas'uliyatiroq kasb bo'lmasa kerak. Ular o'zlarining bor mehru muhabbatlari bilan jamiyatimizning ertasini barpo etishadi.

Bugungi kunda bizni parvozga shaylayotgan ustozlarimizdan S.M.Azizzo'jayeva, M.Sultonova, Z.Sodiqova, O.Po'latova, N.Abidova va boshqalarni qanchalar e'zozlasak, shuncha ozdek tuyulaveradi. Fursatdan foydalanib, O'zbekistondagi barcha ustozlarimizni, xususan, S.Rahimov tumanidagi M.Hamroyev nomli 29 - maktabning hamma-hamma o'qituvchilarini ushbu ayyom bilan chin dildan muborakbod etaman. Ushbu she'riy misralarimni sizlarga sovg'a sifatida taqdim etaman:

*Har tongni qarshilab men,  
Shoshaman sizlar tomon.  
Mehribon ko'zlariningiz,  
Boqar muloyim har on.*



*O'rganib ilmu odob,  
Bordik kamolot sari.  
Nimagaki erishsam,  
Sizlar tufayli bari.*

*Nigora ESHIMOVA,  
Arab tiliga ixtisoslashgan  
29 - maktabning 8- «V» sinf o'quvchisi.*

**O'QITUVCHIM**

Mehr bordir ko'zingizda,  
Sizni hurmat qilar olam.  
Ma'no to'la so'zingizda,  
O'qituvchim, aziz onam.  
Ma'naviyat o'chog'isiz,  
Doim ochiq quchog'ingiz.

*Gavhar AHMEDOVA,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 40 - maktabning  
II - «A» sinf o'quvchisi.*

Biz-la o'tar har chog'ingiz,  
O'qituvchim, aziz onam!

Siz borsizki, go'zal dunyo,  
Quyosh yanglig' sochib ziyo.  
Ardoqlisiz onam go'yo,  
O'qituvchim, aziz onam.

**GEOGRAFIYA  
DARSIDA**

O'qituvchi:  
-Menga xaritadan to'rtta

katta orolni ko'rsating.

G'ayrat:

-Xarita qog'ozdan bo'lsa,  
orollarni ko'rsatsa, ivib  
ketadi-ku...

xxx

-Cho'kayotgan odamga qanday birinchi yordam  
ko'rsatiladi?  
-«Suzishni bilmasang, nima qilarding suvga  
tushib?» degan bo'lardim.

*Hilola EGAMBERDIYEVA,  
Toshkentdag'i 312 - maktabning  
7 - «A» sinf o'quvchisi.*

**XANDALAR****UNUTILMAS SABOG'INGIZ**

*Ustozlar bizga ta'lim berdingiz,  
Ber emas, faqatgina ol derdingiz.*

Chindan ham  
ustozlarim Zilola opa,  
Umida opa va Feruza  
opalarning bergen  
saboqlaridan juda  
minnatdorman. Men  
mактабдаги о'рнини,  
хурматимни ham mana  
shu ustozlarimning sa'y-  
harakatlari ila topdim.  
Boshlang'ich sinfda biz



Zilola opadan juda ko'p  
narsalarni o'rgandik.  
Ular bizni Umida opaga  
topshirdilar. Umida  
opamiz bizga nafaqat  
bilim, balki o'zlaridagi  
bor fazilatlarni ham  
o'rgatib kelmoqdalar.

Maktabimizda u kishini  
hamma birday hurmat  
qiladi. To'garak rahbarimiz

Feruza opaning saboqlari bilan men hayotga  
boshqacha ko'z bilan qaray boshladim. Chunki  
ular menga she'r va maqolalar yozishda yaqindan  
yordam berib kelmoqdalar. Men shu fursatdan  
foydalanib, barcha ustozlarimni bayramlari bilan  
chin yurakdan muborakbod etaman. Savobli  
ishlarida muvaffaqiyatlar tilab qolaman.

*Dilshod IMOMOV,  
Shayxontohur tumanidagi  
316 - maktabning 6- «V» sinf o'quvchisi.*

15

## FILVORD

Ushbu filvordda joylashgan o'nta o'quv qurolining nomini aniqlang.



Ch	I	Z	G`	Ch	K	A	M	L
O	T	I	I	U	A	L	K	U
B	A	K	Ch	R	G`	A	R	I
S	T	A	R	K	I	D	O	S
A	L	T	U	N	L	K	S	R
D	A	F	K	D	A	A	B	O`

## SKANVORD

«Tong ...» (Gazeta)	Shart, zarur	Davlat (Osiyo)
Botir	Ini	Tilak
Bibi Maryam surati		
Qadimiy og`irlilik o`lchovi		Samolyot rusumi

Tuzuvchi: Sherbek YODGOROV.

Ona yurtag - olib berilgani  
**TONG**  
**Yulduzi**

O'zbekiston bolalari va  
o'smirlarining gazetasи

Muassislar:  
O'ZBEKİSTON  
MATBUOT VA AXBOROT  
AGENTLIGI,  
O'ZBEKİSTON  
RESPUBLİKASI XALQ  
TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT»  
YOSHLAR İJTIMOY  
HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» XAYRIYA  
JAMG'ARMASI

**BOSH MUHARRIR:**  
Umida ABDUAZIMOVA  
**TAHRİR HAY'ATI:**  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamiliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinnbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama MURODOVA  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV

Noshir «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib sahifalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.  
“Sharq” nashriyot-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida 46.291  
nusxada ofset usulida bўsildi.  
Korxona manzili: “Buyuk  
Turon” ko'chasi, 41.  
Buyurtma № Г-861

Gazetani  
Ma'suda IRISNAZAROVA  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Ozoda TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi  
№ 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri, Navoiy  
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08